



SANGZOR HAVZASI YER-SUV RESURLARI VA ULARDAN OQILONA
FOYDALANISH MASALALARI

Irkinova Laziza

JDPU Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutahassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu mavzuda suvning ijtimoiy ahamiyati hamda Jizzax viloyatining doimiy suv arteriyasi bo'lgan Sangzor daryosining asosiy suv xarajatlari va xo'jalikdagi o'rni haqida o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sangzor havzasi, chuchuk suv, tabiiy component, geometrik progressiya, Tomas Maltus, soy, suv xarajati, suv rejimi.

Аннотация: В статье рассматривается социальная значимость воды и основная водохозяйственная и экономическая роль реки Сангзор, являющейся постоянной водной артерией Джизакской области.

Ключевые слова: Сангзорский бассейн, пресная вода, природная составляющая, геометрическая прогрессия, Томас Мальтус, водоток, водопотребление, водный режим

Abstract: This article examines the social importance of water and the main water costs and economic role of the Sangzor River, a permanent water artery of the Jizzakh region.

Keywords: Sangzor Basin, fresh water, natural component, geometric progression, Thomas Malthus, stream, water consumption, water regime

KIRISH

Suv inson hayoti balki jamiyki borliqdagi tirik dunyo uchun hayot va mamot masalasini hal qilib beruvchi tabiiy komponentlardan biri sanaladi. Yer yuzasining to'rt dan uch qismini suv tashkil qilsada, lekin insoniyat oldidagi eng katta global muammoligicha, hanuzgacha davom etib kelayotgan muammo- chuchuk suv tanqisligidir. Hammamizga ma'lumki, chuchuk suv -umumiy dunyo suv hajmining atigi 2,5% miqdorinigina egallaydi. 1766-yilda tug'ilgan angliyalik iqtisodchi Tomas Maltusning "Nufus (aholi) qonuni haqidagi tajriba" nomli esseda so'z borgan g'oyalardan biri bu-aholining o'sishi har doim geometrik progressiya, oziq-ovqat esa arifmetik progressiya tarzida o'sib borish g'oyasini olg'a surgan. Bu orqali biz aholining o'sib borishi uning cheklanmagan ehtiyojlari bilan cheklangan resurslar o'rtasidagi nomuttanosiblikni keltirib chiqarishini bilishimiz mumkin.

Asosiy qism.

Suv resurslarini tejash, muhofaza qilishning, ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ahamiyati.

O'rta Osiyo suv resurslarini agarda uni tejab ishlatlsa, 70- 80 million kishiga yetishi mumkin, BMT ning ma'lumotlariga ko'ra 2030-yillarga borib O'rta Osiyoda shuncha aholi yashaydi. O'rta Osiyo aholisi 50 million kishiga yetmasdan Orol dengizining qurishi, suv tanqisligining sezilishi, bu eng avvalo suv resurslaridan tejamsiz foydalanish

- 1). Suv resurslarining tanqisligi;
- 2). Orol dengizi va ko'pgina tabiiy ko'llarning qurishi;
- 3). Mavjud sug'orilayotgan yerlarning sho'rланishi va hosildorlikning keskin pasayishi.
- 4). Bio xilma- xillikning kamayishi.
- 5). Mavjud suv resurslar suv manbalarini hamda uning atrofida ekologiya­ning izdashi va ifloslanishi;
- 6). Suv resurslarida tuz miqdorining ortishi.
- 7). Aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlay olmasligimiz.

Sangzoo daryo havzasining tabiiy kartasi

SHARTLI BELGILAR

- Sangzor daryo havzasini chegaralari
- Atoli punktlar
- Shaharlar
- Qishloqlar
- Tekis yo'llar
- Avtomobil yo'llari
- Daryo daryosi
- Havsumay soxlar
- Qo'shimcha chegaralar
- Sov omborlari
- Kutubxona boshqari va o'zini
- Ishtirok etishlari
- 400 m ga qacha
- 400 m dan - 600 m ga qacha
- 600 m dan - 1000 m ga qacha
- 1000 m dan - 1500 m ga qacha
- 1500 m dan - 2000 m ga qacha
- 2000 m dan - 2500 m ga qacha
- 2500 m dan - 3400 m ga qacha

1: 170 000

Sangzor daryosining asosiy suv xarajatlari, m³/sek

Daryo nomi	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
------------	---	----	-----	----	---	----	-----	------	----	---	----	-----



Sangzor	3,7	4,17	5,2	10,5	8,54	10,4	12,7	10,9	5,73	3,8	3,77	3,0
---------	-----	------	-----	------	------	------	------	------	------	-----	------	-----

Sangzor daryosi Chumqortog' tizmasining shimoliy yonbag'ridan 3300 m balandlikdan oqib, Guralash va Jontik daryolarining qo'shilidan hosil bo'ladi. Sangzor nomini olgandan keyin Molguzar tog'larini aylanib o'tib, Jizzax vohasiga borib quyiladi. Daryoning umumiy suv yig'uvchi havzasi 2580 km² ni tashkil etadi. Umumiy uzunligi daryo boshlanishidan Qilli qishlog'igacha 123 km ga teng. To'yinish xarakteriga ko'ra va suv harajatining rejimi bo'yicha qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi (Shuls, 1965). O'rtacha suv harajati 6,90 m³/sek bo'lib, maksimal suv harajati iyul oyida 12,17 m³/sek. Eng kami esa dekabr oyiga to'g'ri kelib 3,00 m³/sek ni tashkil etadi. Yanvar va fevral oylariga kelib suv miqdori sekin ko'pib, mart oyidan boshlab daryo vodiysi o'zidagi qorlarinng erishi, bahorgi yomg'irlarning yog'ishi bilan suv harajati keskin ko'payadi. Aprel oyida mart oyidagiga nisbatan ikki barobar ko'payib (10,54 m³/sek) birinchi suv toshqini kuzatiladi. Bu tog'larning pastki qismidag va Molguzar tog'ining janubiy yonbag'ridagi qorlarinng erishi bilan bog'liq. Iyun oyida ikkinchi suv toshqini kuzatiladi, bu tog'larning yuqori qismidagi va Chumqor tog'ning shimoliy yonbag'ridagi qorlarning erishi bilan bog'liq. Sentyabr oyida suv xarajat keskin kamayadi. Ayrim sernam yillari Sangzor daryosining suv xarajati unig ko'p yillik o'rtacha ko'rsatkichidan kesikn oshib ketadi. Masalan, sernam bo'lgan 1969 yilda maksimal suv xarajati 300 m³/sek, sel oiqimi xarajatga 411 m³/sek yetdi. Sangzor daryosi Molguzar tog'laridan tekislikka chiqqandan keyin Jizzax vohasida to'lig'icha sug'orishga sarflanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sangzor daryosining kelgusida mutahassislar tomonidan kompleks ishlarda har bir ifloslantiruvchi manbalarni aniqlab, ular ta'sirida suv sifatini kimyoviy o'zgarishlarini oldindan prognoz qilgan holatda kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari daryo suv xarajatlarini inobatga olgan holda undan oqilona foydalanish masalalarini ko'rib chiqish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Alibekov L.A, Nishonov S.A Prirodniye uslovnaya i resursi Djizakskoy oblasti – Tashkent. Uzbekistan. 1978. 255 s.
2. Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. 1-qism. Samarqand, 2006.
3. Ergashev A., Otaboev Sh., Sharipov R., Ergashev T. Suvning inson hayotidagi ekologik mohiyati. Toshkent, 2009.
4. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Samarqand, 2020.
5. G'o'dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlari. Guliston, 2021.
6. Pozilov M.N., Qurbanova L.M., Ibrohimova Z.I. Jizzax shaxar va uni atrifida suv resurslarini ifloslanishi. 2024